



**Dunyoda davlatlari duch kelgan Ekologik muommolar va ularning sabablari.  
Iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun “Muqobil Energiya ”ning ahamiyati.**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*Raqamli Iqtisodiyot fakulteti*

*Axborot tizimlari va Texnologiyalari*

*2-kurs talabasi **Tursunboyev Ziyodulla Anvar o’g’li***

**Annotatsiya:** Biz maqolada Respublikamizdagi ekologik muommolar va shu bilan birga bu ekologik muommolarning bosh sababchi omillarini tahlil qilamiz . Bundan tashqari Jahonda va shuningdek , Respublikamiz hududida ko’rilayotgan chora-tadbirlar bilan birga o’zimizning optimal yechimlarimizni ham aytib o’tamiz. Respublikamizda muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bilan birga Iqtisodiyotimizni yangi bosqichga olib chiqish . Xulosa qilib aytamizki , bizning bu yechimlarimiz Iqtisodiyotimizni o’stiradi va shu bilan birga aholining yashash sharoitini birmuncha yaxshilaydi .

**Abstract:** In the article, we analyze the ecological problems in our Republic and at the same time the main causative factors of these ecological problems. In addition, along with the measures taken in the world and in the territory of our Republic, we will also mention our optimal solutions. Bringing our economy to a new stage along with the development of alternative energy sources in our republic. In conclusion, we say that these solutions of ours will grow our economy and, at the same time, will improve the living conditions of the population.

**Аннотация:** В статье мы анализируем экологические проблемы в нашей республике и одновременно основные причинные факторы этих экологических проблем. Кроме того, наряду с мерами, принимаемыми в мире и на территории нашей Республики, мы упомянем и наши оптимальные решения. Вывод нашей экономики на новый этап вместе с развитием альтернативных



*источников энергии в нашей республике. В заключение скажем, что эти наши решения будут способствовать развитию нашей экономики и в то же время улучшат условия жизни населения.*

***Kalit so'zlar:*** *Global isish, Iqlim o'zgarishi, Atom energiyasi, Yashil Energiya manbalari, Uran Yonilg'isi, Yashil Texnologiyalar.*

Inson tabiatga uzviy bog'langan . Chunki , asosiy iqtisodiy faoliyatlar qaysiki inson yashashi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar – ozuqa, kiyim, qurilish materiallari va boshqalar tabiatdan olinadi. Bunga erishish uchun tabiiy boyliklardan foydalaniladi, albatta bu xomashyolarni qayta ishlash lozim. Buning uchun ulkan sanoat infratuzilmasi yaratilgan. Yuqorida fikr yurtganimizdek sanoat karxonalari nafaqat mahsulotlar ishlab chiqaradi balki atrof-muhitga chiqindilar ham tashlaydi, bu esa tabiatga o'zini salbiy ta'sirini ko'rsatadi .

Sanoat zonalaridan chiqadigan sanoat chiqindilari , xususan plastik va turli xil polimer chiqindilar Ekologiyaga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda .

Ularning arzonligi va chidamliligi bir tomondan Iqtisodiyotimizga bir qancha afzal jihati bo'lsa ham , aslini olib aytganda ular biz o'ylaganimizdek emas . Masalan: turli texnologiyalar yordamida yaratilgan plastik mahsulotlarning o'rtacha parchalanish vaqti 400 yildan 700 yilgacha ekani aniqlangan. Odamlar har kuni ishlatadigan plastik qoplar tabiatda 100 yildan 200 yilgacha bo'lgan muddatda parchalanadi.





Statistika ma'lumotlariga ko'ra har yili o'rtacha 380 miilion tonna plastik buyumlar ishlab chiqiriladi, ammo ularning 10% ga yaqin qismigina qayta ishlanadi va bundan tashqari ularning 12% ga yaqin qismi yoqib yuboriladi. Qolgan qayta ishlanmagan chiqindilarning salmoqli qismi okean va dengiz suvlariga tashlab yuborilmoqda.

Tadqiqotchilarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, dengiz suvlari va kanalizatsiya tarmoqlaridan chiqayotgan sanoat chiqindilari ya'ni asosiy qismi plastik bo'lgan chiqindilar suvda qisman parchalanib, mikroplastik zarralarga aylanadi. Mikroplastik chiqindilar shu darajada yengil bo'ladiki, hattoki haftalab havoda uchib yurishi, bir qit'adan ikkinchi qit'aga uchib bora oladi.

Bu omillar plastik ifloslanishni keltirib chiqarmoqda. Bu insoniyat yuz to'tayotgan Ekologik muommolarning biri hisoblanadi. Insoniyat ayniqsa, oxirgi 50 yilda "Iqlim o'zgarishi", "Global isish" va shuningdek "Muzliklarning erishi" kabi global muommolarga yuzlashdi.

Global isish – yaqin kelajakda paydo bo'libgina qolmagan. Taxminan 1880-yillardan ya'ni "Sanoat Inqilobi" davridan boshlab insoniyat bu muommoga duch kelgan. O'z vaqtida ko'rilmagan chora tadbirlar sababli bu muommo jiddiy tus oldi. Hozirda yillik o'rtacha harorat 1°C dan oshiq miqdorda ko'tarilib bormoqda. Bu bir qancha Ekologik muommolarga sababchi bo'lmoqda, xususan, "Iqlim o'zgarishi" va "Muzliklarning erishi".

Muzliklarning erishi insoniyat oldida turgan eng katta muommolardan biri hisoblanadi. 2011-2020 yillar oralig'ida Grenlandiyada 3-5 trillion tonna muz erib ketgan. Bu – 1 yilda o'rtacha 357 milliard tonna muz eriganini anglatadi. Hududda jami 1 million 700 ming kilometr maydon muz bilan qoplangan, agar ularning barchasi erib ketsa, dunyoda dengiz sathi 6 metrga ko'tarilishi mumkin. Muzlar erishi oxirgi 40 yil ichida 21 foizga tezlashgan. Global isish sabab Arktika dengiz muzi har o'n yilda deyarli 13 foizga erib boryapti. So'nggi 30 yilda esa Arktikadagi



eng qadimgi va eng qalin muzning 95 foizi erib ketdi. Isish to‘xtamasa, Arktika 2040 yilda yozini muzsiz o‘tkazishi mumkin.

Muzliklarning erishi okean bo‘yi davlatlarida tabiiy ofatlarning ortishiga va shuningdek, muzliklarning erishi mintaqalarda yangi issiq oqimlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Tadqiqotchilarning izlanishi natijasiga ko‘ra, muzliklar o‘ziga katta miqdorda metan va issiqxona gazlarini o‘shlab turadi. Muzliklarning erishi bu gazlarning Atmosferaga ko‘tarilishiga va Atmosfera havosining yanada ifloslanishiga olib keladi. Bu omillar global ishishni yanada tezlashtiradi.

Ekologik muommolar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Biz hozir Davlatimiz yuz tutgan va yuz tutishi mumkin bo‘lgan ba‘zi Ekologik muommolarni sanab o‘tamiz.

Albatta O‘zbekiston hududida joyashgan Orol dengizining qurib borishi va shu hududda paydo bo‘lgan cho‘l hududlari. Bu hududlarda paydo bo‘layotgan chang bo‘ronlarining aholi turmush tarziga salbiy ta‘siri. Respublika hududida, asosan poytaxt Toshkentdagi PM 2,5 chang zarralari bilan havoning ifloslanishi. Harorat yildan-yilga ko‘tarilishi sababli, 2050-yilga kelib Davlatimiz suv tanqisligiga o‘chrash ehtimoli ortib bormoqda.

Biz yuqorida ekologik muommolarning raqamlarda keltirdik. Ammo savol to‘g‘iladi. Bu muommolarni bosh sababchilari kimlar?

Ekologik muommolarning asosiy sababchi – Insonning iqtisodiy omili hisoblanadi. Ammo, Insoniyat asrlar davomida bu darajaga yetishiga asosiy sabab bu – Iqtisodiyotini rivojlantirish va tabiiy resurslarni o‘zlashtirishi edi. Tabiiy resurslarning asoiy qismini qayta tiklab bo‘lmaydi. Bular: Neft, tabiiy gaz, rangli metallar, temir rudalari vas shu kabi miqdori cheklangan foydali qazilmalar hisoblanadi. Ular qachondir tugashi tufayli insoniyat yaqin 70 yildan keyin muommolarga yuzlashadi. Davlatlar o‘zilarining zaxiralarini tugatib bo‘lishadi.



Ammo barcha resurslar tiklanmaydi deyish mumkin emas . Bu resurslarga: quyosh va shamol energiyasi yoki bir soʻz bilan aytganda , “Yashil Energiya” deb atashimiz mumkin. Shuningdek, “Atom Energiyasi” ning kelajagi anchayin ham porloq hisoblandi. “Atom Energiyasi “ juda katta miqdordagi foydali resurslarni Iqtisod qilishi mumkin . 1000000000 kvt energiya olish uchun 750 tonna ko'mir yoki 400 tonna neft, 250 gr uran 235 yoki 34 gr og'ir vodorod sarflash kerak. Shu raqamlarning o'zi bu muqobil energiya turi anvhayin istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida “Atom Energiyasi”ni rivojlantirishga qulay iqtisodiy muhit mavjud . Masalan : O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-o'rinda, uran zaxiralari hajmi bo'yicha esa 10-o'rinda turadi

O'zbekiston 2016-yildan beri uran qazib olish bo'yicha jahondagi beshinchi mamlakat maqomini saqlab kelmoqda. Xususan, 2022-yilda respublikada 3 300 tonna uran qazib olingan. Bu ko'rsatkich dunyoda olinadigan jami uranning 6,4 foiziga to'g'ri keladi.

Mamlakatning uran zaxirasi 100 ming tonnadan ortiq bo'lib, dunyoda 10-o'rinda turadi.





Hozirda “Navoiyuran” davlat korxonasi O‘zbekistonda tabiiy uran qazib olish bilan shug‘ullanib kelmoqda . Afsuski , Korxonada ishlab chiqargan uran xomashyosidan foydalanil olmay, mahsulot to‘liq xorijga – AREVA NC (Fransiya), Converdyn (AQSH), Cameco (Kanada), CNEIC (Xitoy) kabi yirik qayta ishlash korxonalariga eksport qilinmoqda . Respublikamiz hududida qariyb 39 ta uran konlaridan ishlab chiqarilayotgan uranni qayta ishlash orqali Energetika sohasida muqobil energiyaga ega bo‘lardik . Davlatimizning ma‘lum foydali qazilmalari tejalar edi.

Masalan : Fransiya butun elektr energiyasining 70% ga yaqin qismini AES energiyasidan oladi .

O‘zbekiston faqatgina “Atom Energetikasi” sohasidagina emas , balki “Yashil Energetika” sohasida rivojlantirish uchun istiqboli bor . O‘zbekiston quyosh energetikasining yillik yalpi salohiyati neft ekvivalentida 51 milliard tonnadan oshadi va bu resurslar hisobiga yillik iste‘moldan 40 barobar ko‘p miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Quyoshning yerimizga yuborayotgan energiyasini texnologiyalarimiz foydali ish koeffitsienti 22 foizdan oshadi. Germaniya mutaxassislarning olib borgan tadqiqotlari natijasida shamol tezligi boshqa hududlarga nisbatan 1.5 barobar ko‘pligi aniqlangan.

O‘zbekistonda 2019—2022-yillarda issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xorijiy investorlar bilan jami 6 milliard 919 million dollarga teng 19 ta bitim imzolangan . Bu raqamlar oshib bormoqda .

Ammo ko‘rinib turinibdiki , “Qayta tiklanuvchi energiya “ sohasida O‘zbekistonning salohiyati o‘ylaganimizdan balandroq .



Mutaxassislar hisob-kitoblariga qaraganda, O‘zbekistonda quyosh stansiyalarini qurish orqali jami 600 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu respublikaning hozirda energiyaga bo‘lgan jami ehtiyojidan 8 barobar ko‘p degani.

Xulosa qilib aytganda , muqobil energiya sohaslarini rivojlantirish birinchi navbatda Vatanimizning Iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqadi . Aholining turmush sharoitini yuksaltirish bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini bir necha barobar ko‘paytiradi . Respublika hududida yashil texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari ham alohida o‘rin tutadi . Chunki bu muqobil energiya odatiy foydaniladigan yonilg‘idan qariyb 22 marta arzon va tiklanuvchan .

Boshqa tarafdin muqobil energiya manbalari Ekologiya muommolarining yechimining optimal variant hisoblanadi . Chunki , boshqa yechimlarda iqtisodiy faoliyatlarni qisqartirish bilan qisman Ekologik muommoarning ta’sirlarini kamaytirishimiz mumkin . Lekin bu yechimda hattoki , Iqtisodiy o’sishga ham erishamiz .



Albatta muqobil energiya sohasini Jahondagi rivojlangan davlatlar o'zining asosiy sohalariga aylantirib olishmoqda . Keyingi davrda biz bu sohaga ko'proq e'tibor berishimiz shart . Chunki bu davr talabi hisoblandi .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://daryo.uz/2023/02/02/ozbekistonda-yashil-energetika-davri-boshlanganiga-uch-yil-boldi-nimalar-ozgardi> (Internet sayti)
2. [https://vaqt.ucoz.com/publ/ekologiya/atom\\_energiyasidan\\_foydalanish/30-1-0-795](https://vaqt.ucoz.com/publ/ekologiya/atom_energiyasidan_foydalanish/30-1-0-795) (Internet sayti )
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiat\\_resurslari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiat_resurslari) (Internet sayti )
4. <https://yuz.uz/uz/news/global-isish-jadal-davom-etmoqda-va-uning-sababi-shubhasiz--inson> (Internet sayti )
5. <https://kun.uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F08%2F12%2Fiqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar> (Internet sayti )